



OQOVA SUVLARNI XAVFSIZ TOZALASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISHNI ZAMONAVIY YECHIMLARI

Tojiyev Kamoljon G'ofurovich
1-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimizda va chet davlatlarda atrof-muxit ifloslanishini kamaytirish va oldini olish, suv resurslarini samarali boshqarish va ularni muxofaza qilish maqsadida tegishli qonunlar ishlab chikilmoqda, turli texnologik, sanitar texnik, tashkil qilish va boshqa chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda jamiyatning barqaror rivojlanishi, aholining yashash ko'rsatgichlari, hududning ekologik holati muxandislik kommunikatsiyalarining ishlash samarasi bilan bilan chambarchas bog'liq.

Kalit so'zlar: oqova suvlar, maishiy-xo'jalik, ichimlik suvi ta'minoti, suv havzalari, yog'ingarchilik, gidroksidlanish.

Yangi muxandislik kommunikatsiya tizimlarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, geoinformatsion tizimlardan foydalanish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Aholini sifatli va zarur miqdorda suv bilan ta'minlash, hosil bo'ladigan oqova suvlarni oqizish va ularni inshootlarda talab qilinadigan darajada tozalash sanitariya-gigienik jihatdan ahamiyatga molikdir. Ichimlik suvi bilan ta'minlash, oqova suvlarni oqizish va tozalash aholining turmush darajasini yaxshilash bilan birga suv orqali o'tadigan har xil kasalliklarning oldini ham oladi. Hozirgi paytda suv havzalari ifloslanishining oldini olishga juda katta ahamiyat berilmokda.

Maishiy-xo'jalik va sanoat korxonalaridan chiqadigan oqova suvlar inshootlarda muayyan tozalanib, ular yana suv havzalariga oqiziladi. Shu bilan birga suv havzalarini ma'lum darajada ifloslantiradi. 745 Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan suv havzalarining sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan qator amaliy chora-tadbirlar ko'rilmokda.

Jumladan, mamlakatimiz hududiy infratuzilmasining eng muhim tarkibiy qismi xisoblangan, insonlarning munosib hayot kechirishi uchun zarur shartsharoitlarni shakllantiruvchi, uy-joylar va aholi punktlarining har jihatdan shinam va qulay bo'lishini ta'minlaydigan kommunal soha va uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017- 2021 yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda



modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi 2017 yil 20- apreldagi qarori qabul qilingan.

Tadqiqot metodlari. Reagent tozalash usuli. Dunyoda eng ko'p tarkalgan usullardan biri (korxonalarining 85 foizi) va suvda eriydigan og'ir metallar aralashmalarini tozalash usuli hisoblanadi. Metallarning cho'kishi odatda, neytrallashtirish bilan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Tozalashning mohiyati shundan iboratki aralash va og'ir metallarni turli reagentlar qo'shilishi bilan erimaydigan shakllarga o'tkazib va keyinchalik yogingarchilik ko'rinishida gidroksidlarni shakllantirish.

Quduq elementlari va quvurlarni ko'tarish, surish va joylashtirish uchun maxsus yuk ushlash moslamalari qo'llaniladi. Quvuro'tkazgichlarni ko'tarish va joylashtirish uchun yuk ushlash moslamalarni tanlash - moslama zarur bo'lgan yuk ko'tarish qobiliyatini, mustahkamligini, quvurlarni ishonchli ushlashni (yuk olib qo'yish uchun ishlatiladigan arqon (tross), quvurni va uning izolyatsiya qoplamasini shikastlanishiga yo'l qo'ymasligini, konstruksiyasini va qo'llanilishini soddaligini ta'minlashini hisobga olib amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar. O'zimizda ishlab chiqarilgan pnevmatik aerator va pnevmatik agitatorlardan foydalanish;

- azot va fosforni olib tashlashning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda mavjud biologik tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish;
- taroqsimon oqimlardan foydalanish hisobiga ikkilamchi cho'ktirgichlarga gidravlik yukni tenglashtirish; texnologik jarayonlarni to'xtatmasdan konstruksiyalarni rekonstruksiya qilish imkonini beruvchi texnik yechimlarni qabul qilish;
- mavjud quvvatlar va kommunikatsiyalardan maksimal darajada foydalanish;
- avtomatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish va texnologik jarayonlarni dispetcherlik nazorati;
- energiya tejovchi uskunalar va korroziyaga chidamli materiallardan foydalanishdan iborat.

Toshkentda kanalizatsiya 1937-yili To'qimachilik kombinatida qurilgan bo'lib, oqova suvlar mexanik tozalash va oddiy zararsizlantirilgandan keyin, Salor kanaliga tashlangan. Tarmoqlarning uzunligi 7 km, sutkalik sarfi 1350 m³ sutkani tashkil etgan. 1942-1943-yillarda Navoiy, Poligrafiya, Shevchenko, Poltaratskiy ko'chalarida kanalizatsiya tarmoqlari yotqizilgan. Oqova suvlar sarfi 1944-yilga kelib, yiliga 5372,1 ming m³ ga yetgan. 1946-yilda oqova suvlar sarfi yiliga 8081,2



ming m³ , tarmoqlarning uzunligi 29 kmni tashkil etgan. 1957-yilda 8000 m³ sutka quvvatiga ega bo'lgan Labzak oqova suvlar tozalash inshooti ishga tushgan. 1965-1967-yillardan boshlab Farg'onada, Namangan, Samarqand, Andijon va boshqa shaharlarda kanalizatsiya tarmoqlari va tozalash inshootlari qurila boshlangan.

Quyosh radiatsiyasi va iflos suvga toza suv kelib quyilishi natijasida suv qaytadan tozalanadi. Turli bakteriya, zamburug' va suv o'tlari suvni qayta tozalashda faol agentlardan hisoblanadi. Suv turli iflos moddalarga haddan tashqari to'yingan bo'lsa, u holda uni tozalash uchun turli mustaqil yoki kompleks usullardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. (REFERENCES)

1. B.F. Beletskiy. *Texnologiya i mexanizatsiya stroitel'nogo proizvodstva: Uchebnik dlya vuzov.* – Rostov na Donu.: Feniks; 2003.
2. Yu.Z.Salov, G.V. Zamyatin. *Injenernye sooruzeniya i osnovy stroitel'nogo proizvodstva: Uchebnik dlya vuzov.* – L.: Stroyizdat, 1990.
3. I.M.Mahmudova, A.T.Salohiddinov - Qishloq va yaylovlar suv ta'minoti. - Darslik. TIQXMI, 2002 yil. 87-93 betlar.
4. *Montaj sistem vneshnego vodosnabjeniya i kanalizatsii: Spravochnik pod red. A.K.Pereshivkina.* – M.: Stroyizdat, 1988.
5. *Posobie po ukladke i montaju chugunnykh, jelezobetonnykh i asbestotsementnykh truboprovodov vodosnabjeniya i kanalizatsii.* – M.: Stroyizdat; 1989.